O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QASHQADARYO VILOYATI QARSHI SHAHAR HOKIMINING

Q A R O R I

180100, Qarshi shahri, I.Karimov ko‘chasi, 60-uy.Faks (+99875)223-08-93, qarshi.sh@exat.uz

2020 - yil “ 21 ” dekabr HQ-2402/12-sonli Qarshi shahri

Qarshi shahridagi aholi punktlari ko‘chalari va shahar avtomobil yo‘llaridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida

“Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi Qonunining 20-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Shahar obodonlashtirish boshqarmasi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan Qarshi shahridagi aholi punktlari ko‘chalari va shahar avtomobil yo‘llaridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Shahar hokimining o‘rinbosari G‘.Sultonov, shahar obodonlashtirish boshqarmasi T.Chupanov fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda shahar hududidagi yo‘llarni saqlash, ta’mirlash hamda obodonlashtirish ishlarini tashkil etib borsinlar.

3. Mazkur qaror “Voha” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni shahar hokimining o‘rinbosari G‘.Sultonov, shahar obodonlashtirish boshqarmasi T.Chupanov va funksional vazifalariga ko‘ra yo‘l sohasiga, tartib ijrosiga mas’ul bo‘lgan boshqa tashkilotlar zimmasiga yuklatilsin.

Qarshi shahar hokimi **N.Xolboev**

UMUMIY BO‘LIM
ASLIGA TO‘G‘RI